



THEORETICAL AND LEGAL CHARACTERISTICS OF THE PREVENTION OF HARASSMENT AND VIOLENCE AGAINST WOMEN

Yulduz Maktumova

*Public Security University of the Republic of
Uzbekistan Independent Researcher (PhD)
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Women, oppression and violence, prevention, victim, conditions, prevention, general, special, individual, victimological prevention.

Received: 18.07.26

Accepted: 19.07.26

Published: 20.07.26

Abstract: This article analyzes issues related to the general description of the prevention of oppression and violence against women. In addition, this article also examines the general description of the prevention of oppression and violence against women from all aspects and its victimological aspects and components. It is also noted that in order to identify and eliminate the causes of oppression and violence against women and the conditions that allow them, a system of legal, social, organizational and other measures of general, special, individual and victimological prevention of violations can be taken.

AYOLLARGA NISBATAN SODIR ETILADIGAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKLAR PROFILAKTIKASINING NAZARIY HUQUQIY TAVSIFI

Yulduz Maktumova

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Mustaqil tadqiqotchi (PhD)
Toshkent, O‘zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Xotin-qizlar, tazyiq va zo‘ravonliklar, profilaktika, jabrlanuvchi, shart-sharoitlar, oldini olish, umumiy, maxsus, yakka, viktimologik profilaktika.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasining umumiy tavsifiga doir masalalar tahlil etilgan. Bundan tashqari, mazkur maqolada Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasining umumiy tavsifini har jihatdan o‘rganish va buning

viktimologik jihatlarini, tarkibiy qismini tashkil etishi yuzasidan ham fikrlar o'rganildi. Shuningdek, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimichoralari ko'rilishi mumkinligi ham ta'kidlab o'tilgan.

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОФИЛАКТИКИ ПРИТЕСНЕНИЯ И НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН

Юлдуз Мактумова

Независимый исследователь (PhD)

Университет общественной безопасности Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Женщины, угнетение и насилие, профилактика, жертва, условия, профилактика, общая, специальная, индивидуальная, виктимологическая профилактика.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы, связанные с общей характеристикой предотвращения притеснений и насилия в отношении женщин. Кроме того, в данной статье изучена общая характеристика профилактики угнетения и насилия в отношении женщин и девочек во всех аспектах, а также изучены виктимологические аспекты и ее состав. Также отмечено, что правовые, социальные, организационные и другие меры общей, специальной, индивидуальной и виктимологической профилактики правонарушений применяются в целях выявления и устранения причин притеснений и насилия в отношении женщин и условий, способствующих их осуществлению. можно увидеть систему событий.

Kirish. “Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasi” – Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar tushunchasi hamda uning turlariga qarshi umumiy profilaktik chora tadbirlar majmuidan tashkil topgan.

Adabiyotlarda zo'rlik - biror kishining ikkinchi bir kishini zo'ravonlik, jismoniy kuch ishlatish yo'li bilan xo'rlashi, jabr-zulm qilishi[1], yoxud zo'rlik-biror kishining ikkinchi bir kishiga nisbatan zo'rlik qilishi, zo'ravonlik, jismoniy kuch ishlatish yo'li bilan xo'rlashi, jabr-zulm qilishi[2] deb ko'rsatilgan. Boshqa adabiyotlarda zo'ravonlik - qonun bilan taqiqlangan ma'naviy, ruhiy va jismoniy zarar yetkazuvchi harakatlarni shaxs xohish irodasiga qarshi ravishda amalga oshirishdir,[3] zo'ravonlik - zo'ravonlarga xos xatti-harakat, zo'rlik, kuch ishlatish, o'zgalarga qonunsiz ravishda kuch ishlatuvchi, zo'rlik qiluvchi, jismoniy baquvvatlik, kuchlilik, ulkanlik, shiddatlilik[4] deb turlicha ta'rif berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: A.Murodov esa "Zo'ravonlikning mazmun-mohiyatiga ko'ra uni quyidagicha sharhlaydi:

1) zo'ravonlik biror-bir kishiga nisbatan jismoniy ta'sir o'tkazish, qasddan badaniga turli darajada shikast yetkazish;

2) shaxsga majburiy ta'sir ko'rsatish, ya'ni shaxsning ustidan zo'ravonlik qilish, uning ixtiyoriga zid bo'lgan xatti-harakatlarni qilishga majburlash;

3) shaxsga ruhiy ta'sir etish orqali uni o'ziga qaram qilish yoki bo'ysundirish" deya tasvirlaydi[5].

Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda tahqirlash deganda, jabrlanuvchining sha'ni va g'ururini bir necha marta tahqirlashni (masalan, tuhmat qilish, haqoratlash, ta'qib etish va hokazolarni) tushunish kerak[6]. "Zo'ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)dir [1]. Zo'ravonlik — bu jarohatlash, suiiste'mol qilish, zarar yetkazish yoki yo'q qilish uchun jismoniy kuch ishlatishdir. Jabrlanuvchining o'limga, psixologiyasiga, noto'g'ri rivojlanishiga yoki mahrumlikka sabab bo'lgan, boshqa shaxsga, guruhga yoki jamiyatga qarshi har qanday kuchni qasddan qo'llash, tahdid qilish yoki jarohat yetkazish zo'ravonlikdir. Zo'ravonlikning oldini olishda ko'p shakllar mavjud. Mamlakatdagi zo'ravonlik darajasi va o'zgartirilishi mumkin bo'lgan omillar o'rtasida kuchli bog'liqlik bor. Masalan, gender tengsizliklari, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, bolalar va ota-onalar o'rtasida xavfsiz, barqaror hamda tarbiyaviy munosabatlarning yo'qligi. Garchi ruhiy va jismoniy salomatlik hamda individual reaksiyalar, shaxsiyatlar va boshqalar bu xatti-harakatlarning shakllanishida doimo hal qiluvchi omillar bo'lib kelgan bo'lsa-da, zo'ravonlikning asosiy sabablarini hal qiluvchi strategiyalar uning oldini olishda nisbatan samarali bo'lishi mumkin. Zo'ravonlik o'zgaruvchan hodisa bo'lib, o'zini nozik va vahshiy shakllarda namoyon qiladi.

Ayniqsa, bunda shaxsning sha'ni, qadr-qimmati, ozodligi, huquq va erkinligi, hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlar sodir etiladi[7].

Tadqiqotning usullari: Ayollarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning profilaktikasi nazariy-huquqiy tavsifini mavzusini o'rganishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Mavzu yuzasidan Ayollarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning profilaktikasi haqida huquqiy, iqtisodiy adabiyotlarni hamda statistik ma'lumotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish usulidan foydalanildi. Shuningdek, olimlarning ilgari surgan fikrlari Ayollarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning profilaktikasi rivojlanishi bo'yicha bugungi kundagi muammolar va ularni hal etish imkoniyatlarini o'rganish uchun aralash usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida umumlashtirish, taqqoslash ilmiy tadqiqot usullaridan hamda tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Muhokama va natijalar: Yuqoridagilardan kelib chiqib hamda zo'ravonlikning mazmun-mohiyatiga ko'ra uni quyidagicha sharhlash mumkin: 1) zo'ravonlik biror-bir kishiga nisbatan turli usullarda jismoniy va ruxiy ta'sir o'tkazish, qasddan badaniga turli darajada shikast yetkazish; 2) shaxsga turli ko'rinishda majburiy ta'sir ko'rsatish, ya'ni shaxsning ustidan zo'ravonlik qilish orqali uning hayotiga tasir o'tkazish, uning hohishiga zid bo'lgan xatti-harakatlarni qilishga majburlash; 3) shaxsga ruhiy va jismoniy ta'sir etish orqali uni o'ziga qaram qilish yoki bo'ysundirish hamda bunga urinish. Zo'ravonlik hodisasi atrofimizda, turli odamlar hayotida uchrab turadigan ijtimoiy illatlardan biridir. Zo'ravonlik ijtimoiy munosabatlar ichida yuz beradi va mana shu ijtimoiy munosabatlarning noto'g'ri tarzda tashkil qilinishi oqibati sanaladi.[8]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib zo'ravonlik tushunchasiga quyidagicha qisqa taruif berish mumkin bo'ladi. Zo'ravonlik — bu gender asosidagi tengsizlikdan kelib chiqib, shaxsga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy zarar yetkazish yoxud bunday zarar yetkazish bilan tahdid qilish orqali uning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoyalangan huquq hamda erkinliklariga qaratilgan g'ayrihuquqiy harakat (yoki harakatsizlik)lar majmuasidir.

Qisqa qilib aytganda biz zo'ravonlikka quyidagicha tarif berishimiz mumkin bo'ladi: Zo'ravonliklar jumlasiga qiynoqqa tortish, yakkalatib qo'yish, inson irodasiga qarshi harakat qilishga majburlash yoki undash, ushlab turish, zo'rlash, tahqirlash, xo'rlash kabilarni kiritish mumkin.

Zo'ravonlik – bu shaxsga qarshi qaratilgan bo'lib u jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy zarar yetkazish yoxud shunday zarar yetkazish bilan tahdid qilish orqali uning hayoti, sog'lig'i,

sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan huquq hamda erkinliklariga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar majmuasidir.

Tazyiq tushunchasiga keladigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan:

Tazyiq - sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik, ta'qib etishdir.[2]

Bu ta'rif zo'ravonlikdan farqli o'laroq, tazyiqni ko'proq ma'naviy-ruhiy bosim, haqorat, ta'qib va kamsitish shaklida ko'radi, ammo u huquqiy javobgarlikka olib kelmasligi mumkin (garchi qonunda alohida himoya mexanizmlari mavjud).

O'z navbatida tazyiq esa kuch bilan, zo'rlab o'tkaziladigan ta'sir, siquv, bosim[9] degan ma'nolarni anglatadi. Shuningdek tazyiq atamasi o'rta asrlarda ham mavjud bo'lib, Atama Ibn Battuta ta'riflagan "boshni tizzalar orasiga qo'yib o'tirish" sufiy holatini ifodalash uchun ishlatilgan.[10]

A.Mo'minovning fikricha tazyiqni gender zo'ravonligining bir qismi sifatida ko'rib, uni ruhiy va iqtisodiy bosim, oilaviy muhitdagi kamsitish bilan bog'liq. U tazyiq va zo'ravonlikni oilada boshlanishi va jamiyatga ta'sir qilishini ta'kidlaydi[3]

U. Sunatullayevna esa Oilaviy tazyiqni "mehr-oqibat, ishonchsizlik, kamsitish, adolatsizlik" kabi psixologik omillar bilan izohlaydi. Tazyiq talaba qizlarning dunyoqarashiga va oilaviy muhitga salbiy ta'sir qilishini, nevrotik holatlar va o'z-o'zini vayron qilish xavfini oshirishini qayd etadi.[11]

Tadqiqot natijalariga ko'ra esa shuni aytish mumkinki tazyiq jinoiy yoki ma'muriy javobgarlik keltirib chiqarmaydigan ammo jabrlanuvchining jamiyatdagi yashash tarzi hamda psixologik holatiga salbiy ta'sir qiluvchi g'ayriijtimoiy harakatlar tushunilishi kerak.

Tazyiq - xotin-qizlarning sha'ni, qadr-qimmatini va psixologik holatiga doimiy yoki takroriy ravishda bosim o'tkazish, ta'qib qilish, kamsitish, haqorat qilish va ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini cheklashga qaratilgan, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka olib kelmasligi mumkin bo'lgan, ammo uzoq muddatli salbiy psixologik oqibatlarga (nevroz, o'z-o'zini hurmat qilishning pasayishi, depressiya va boshqalar) olib keladigan ma'naviy-ruhiy bosim shakllaridir.

Tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq -psixologik bosim, ta'qib, kamsitish shaxsiy huquq hamda erkinliklaridan foydalanishga to'sqinlik qilish hamda zo'ravonlik-jismoniy, jinsiy, iqtisodiy va ruhiy tajovuz kabi gender asosidagi zo'ravonlikning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi.

Quyida Profilaktika tushunchasini qisqacha nazariy tahlil qiladigan bo'lsak, "profilaktika" tushunchasi grekcha "prophylaktikos" so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tiliga to'g'ri tarjima

qilinganda “saqlash, ehtiyot qilish” (predoxranitelniy) ma’nosini bildiradi. “Profilaktika” tushunchasiga “oldini olish, ehtiyot chorasini ko’rish, oldindan bartaraf qilish” (predotvrashcheniye), “xabardor qilib qo’yish, ogohlantirish, oldini olish” (preduprezhdeniye), “saqlash, ehtiyot qilish” (predoxraneniye) kabi so’zlar sinonim hisoblanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu tushuncha “odamlar sog‘lig‘ini saqlash, kasalliklarning paydo bo‘lishi va tarqalib ketmasligining oldini olish, aholining jismoniy rivojlanishini yaxshilash va uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga qaratilgan choratadbirlar majmui” mazmunida izohlangan. Tom ma’noda esa “profilaktika” — bu “umuman, biror hodisaning oldini olish, mexanizm va mashinalarning muddatidan oldin ishdan chiqishi, buzilishidan saqlash uchun ko‘riladigan choralar” deb tushuniladi[12]

Penitensiar tizimning profilaktik funksiyasini tadqiq etgan N.S. Salayev profilaktika tushunchasini ikki ma’noda ko‘rib chiqadi: 1) tibbiy ma’noda - kasalliklarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar majmui; 2) huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan choratadbirlar majmui[13]

Yevgeniy Alauhanov esa profilaktika so‘zining ma’nosini, birinchidan, jinoyatning sodir etilishiga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlashga, ikkinchidan, jinoyat sodir etishi mumkin bo‘lgan shaxsni (uning g‘ayriijtimoiy xulq-atvorini) aniqlashga hamda ularga nisbatan zarur ogohlantiruvchi tadbirlarni o‘tkazishga qaratilgan faoliyat sifatida tushunish lozim, deb hisoblaydi[14]

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib ta’kidlash mumkinki, «profilaktika» tushunchasi grekcha kelib chiqishiga ko‘ra «oldini olish, saqlash va ehtiyot choralarini ko‘rish» ma’nolarini bildiradi. U nafaqat oqibatni, balki huquqbuzarlik va jinoyatlarning sabablari hamda shart-sharoitlarini bartaraf etishni ham qamrab oladi.

“Profilaktika”, “oldini olish” va “qarshi kurash” tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lib, ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llaniladi. Biroq “huquqbuzarliklarga (jinoyatchilikka) qarshi kurash” eng keng tushuncha hisoblanib, profilaktika va oldini olishni o‘z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu atamalar bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emas, ammo ularning mohiyati bir-birini istisno etmaydi va asosan huquqbuzarliklarning sabablarini aniqlash, bartaraf etish hamda ularning oldini olishga qaratilgan choralar majmuasini bildiradi.[15]

Demak, huquqbuzarliklar profilaktikasi huquqni muhofaza qilish organlari va jamiyatning jinoyatchilikka qarshi kurashidagi muhim strategik yo‘nalishlardan biri sanaladi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasining umumiy tavsifi beradigan bo‘lsak avvalo u qaratiladigan obyekt aniqlash lozim bo‘ladi. S.Xo‘jaqulovning fikricha Huquqbuzarliklar profilaktikasining ob‘yektlarini quyidagicha

tasniflash maqsadga muvofiq deb biladi. Profilaktik ta'sir choralari yo'naltirilgan salbiy hodisa va jarayonlar bo'yicha hamda Profilaktik ta'sir choralari yo'naltirilgan shaxslar doirasi bo'yicha.[15]

Albatta huquqbuzarlik profilaktikasi bo'yicha berilgan tarif lekin tazyiq va zo'ravonliklar sodir etish huquqbuzarlikning bir shaklidir. Faqat Huquqbuzarliklar profilaktikasidan farqli o'laroq Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasining obyekt hamda unda ishtirok etadigan subyektlari doirasi ma'lum bir yo'lanishga ya'ni xotin-qizlarning gendir tengligi hamda ularga nisbatan sodir etiladigan huquqbuzarliklar masalalariga qaratilgan bo'ladi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasiga keladigan bo'sdak Ilmiy nuqtai nazardan, profilaktika bu muammoni faqat oqibatlarini bartaraf etish emas, balki uning ijtimoiy, madaniy va struktural sabablarini bartaraf etishga qaratilgan kompleks strategiyadir.[4]

Tadqiqot davomida "Sizningcha xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasining obyektlarini kimlar tashlik etishi kerak?" degan savolga so'rovnomada ishtirok etuvchilarning 85% fuqarolar; g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar; tazyiq va zo'ravonliklar sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar; tazyiq va zo'ravonliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar; tazyiq va zo'ravonliklardan jabrlanuvchi xotin qizlar; tazyiq va zo'ravonliklardan jabrlanish ehtimoli holatida bo'lgan xotin qizlar degan javobni bergan.

A. Mo'minov va boshqalar: Tazyiq va zo'ravonlikni oilaviy muhitda boshlanadigan muammo sifatida ko'rib, uni jamiyatdagi gender stereotiplari va iqtisodiy tengsizlik bilan bog'laydilar. Profilaktika uchun huquqiy choralalar bilan birga ta'lim, tarbiya va oilaviy qadriyatlar ustida ishlashni muhim deb hisoblaydilar.[5]

Mahalliy tadqiqotchilar (Uktamova, Ziyavutdinova va boshqalar): Tazyiqni ruhiy bosim, kamsitish va ta'qib sifatida tavsiflab, uning uzoq muddatli psixologik oqibatlarini (nevroz, o'z-o'zini hurmat qilishning pasayishi) ta'kidlaydilar. Oldini olishda mahalla, ta'lim muassasalari va davlat organlarining hamkorligini zarur deb biladilar.[6]

«Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasi» - xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar tushunchasi hamda uning turlariga qarshi qaratilgan umumiy profilaktik chora-tadbirlar majmuidan iboratdir.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasini huquqiy tartibga solish maqsadida yurtimizda qator qonun hamda qonunosti hujjatlar qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi 2019-yil 2-sentyabrdagi O'RQ-561-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 4-yanvardagi 3-son Qarori bilan tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturidan o'tishi tartibini belgilab beruvchi norma qabul qilingan. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda ham xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishi qilib belgilangan. Har bir xotin-qiz zo'ravonliksiz hayotda xavfsiz va farovon yashashga haqli. Uning bu huquqlarini poymol qilish, tazyiq o'tkazish qonun bilan himoyalanaadi.[7] "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to'g'risida"[8] gi Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[9] gi farmoni qabul qilindi.

O'zbekiston qonuniy hujjatlari hamda ilmiy faktlardan kelib chiqib, xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasini amalga oshirishni uch bosqichga bo'lib o'rganishimiz mumkin bo'ladi.

Birinchi bosqich fuqarolarda jumladan xotin qizlarda tazyiq va zo'ravonliklar sodir etilishi uchun muhit yaratib berilishiga yo'l qo'ymaslik borasida ko'nikmalar hosil qilish, ya'ni bunda xotin-qizlarga o'z haq-huquqlarini tushuntirish, ko'rgazmali plakatlar, tarqatma materiallar orqali sodir etilishi mumkin bo'lgan tazyiq va zo'ravonliklar haqida ogohlantirish, maktab o'quvchi qizlari, Oliy ta'lim talabalari, mahallalarda xotin-qizlar o'rtasida turli xil slayd va video roliklar orqali tushuntirishlar berish va ogohlantirish qisqa qilib aytganda aholini tazyiq va zo'ravonlik qurboni bo'lmasligi uchun unga qarshi immunitet yaratish va yoki tarbiyalash.

Ikkinchi bosqich bu Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar sodir etilishi uchun muhit mavjud bo'lgan taqdirda uning oldini olish uchun ushbu muhitni yo'qotish va yoki xotin-qizlarni ushbu muhitdan himoya qiluvchi umumiy profilaktikani tashkil qilish bunda aholi gavjum bo'lmagan tashlandiq lekin umumiy foydalanish yo'laklari va jamoat joylariga chiroqlar va kameralar o'rnatish, aqlan nosog'lom shaxslar va ichkilikka ruju qo'ygan shaxslarni doimiy kuzatuv ostiga olish, norkalogiya va asab-ruhiy dispansirlariga joylashtirish, aholi gavjum bo'lgan joylarda doimiy tartibni saqlovchi xodimning bo'lishi kabilardir.

Uchinchi bosqich bu Xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan tazyiq va zo'ravonliklardan so'ning uning takroran sodir etilishini oldini olish maqsadida jabrlanuvchi va tazyiq va zo'ravonlik sodir etuvchi shaxslarga nisbatan Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning profilaktikasining maxsus, viktimologik hamda yakka tartibdagi usullarini qo'llash. Bunda jabrlanuvchi va zo'ravon bilan profilaktik suhbat o'tkazish, sodir etilgan noqonuniy xatti-harakatning og'irlik darajasi va keltirgan ma'naviy jismoniy ziyonidan kelib chiqib jazolangandan so'ng profilaktik hisobga va yoki ma'muriy nazoratga olish,

jabrlanuvchining holatidan kelib chiqib unga tibbiy, moddiy-ma'naviy yordam taklif qilish, ko'rsatish va unga qonuniy haq-huquqlarini tushuntirish kabi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik asosan jismoniy kuch ishlatish orqali sodir etilishini va ularga xos xususiyatlarni tadqiq qilishga harakat qilishgan. Zo'ravonlikni boshqa shaxsga nisbatan qasddan jismoniy zo'rlik ishlatib, shaxsning sog'lig'i yoki hayotiga zarar yetkazishga qaratilgan jismoniy daxlsizligini buzishda namoyon bo'ladi. Lekin, bunday holatda jabrlanuvchiga ruhiy ta'sir ko'rsatishni ham inkor qilmaydi. Jismoniy zo'ravonlikni urish, tepish, sog'liqqa zarar yetkazish, qamab qo'yish orqali ta'sir ko'rsatishdir deb o'ylaymiz.

Bizningcha, jismoniy zo'ravonlikda jabrlanuvchiga jismoniy zarar yetkazish orqali unga nisbatan turli darajada shikast yetkazishni ham inobatga olish lozim. xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik shaxsning sog'lig'i, hayoti va boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga zarar yetkazish yoki zarar yetkazish bilan qo'rqitib ijtimoiy xavfli, g'ayri qonuniy ta'sir ko'rsatishdir. Jismoniy zarar yetkazish bilan tahdid qilish – bu jabrlanuvchi (yoki jabrlanuvchilarni) jismoniy zo'ravonlik ishlatish bilan qo'rqitishdir. xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik ko'pincha jismoniy kuch ishlatish orqali hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan holda sodir etiladi. Jismoniy zo'ravonlikda kuch ishlatish, kaltaklash, badanga nisbatan turli darajada shikast yetkazish holatlari namoyon bo'ladi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olishning profilaktikasini amalga oshirishda quyidagi masalalarni yoritish va o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni ustuvor deb bilishimiz lozim:

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olishning umumiy profilaktikasi keng jamoatchilikni jalb etish subyektlar doirasini kengaytirish;

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olishning profilaktikasiga doir qonunchilikni takomillashtirish;

Er-xotinlar bir-birining huquq va mas'uliyatlarini hurmat qilishlari, o'zaro rollarni ochiq muloqot orqali taqsimlashlari kerak;

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish;

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, hisobini yuritish, tahlil qilish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

kam kuch va vaqt sarflab aholiga Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarga qarshi profilaktik ta'sir ko'rsatgan holda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish va huquqbuzarlik uchun javobgarlikning muqarrarligi hissini uyg'otish;

xotin-qizlarni huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavfi haqida ogoh etish hamda tazyiq va zo‘ravonliklardan himoyalashning usullari va vositalari to‘g‘risida xabardor qilish orqali ularning jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish;

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olishning maxsus hamda yakka tartibdagi profilaktikasi chora tadbirlari asosan tazyiq va zo‘ravonlik o‘tkazuvchiga qaratilgan kompleks chora tadbirlar tizimini kengaytirish;

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish borasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan nazorat qilish mexanizmining ishlab chiqilmaganligi, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarga qarshi profilaktikasini takomillashtirish va ta’sir ko‘rsatish doirasiga ko‘ra taqsimlash kabilar.

Xulosa. Bugungi kunda O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarning muhim ahamiyati orqali vazifalarni amalga oshirishda tariximiz va bugungi kunimizdagi holatini e’tiborga olgan holda o‘rganish, tahlil qilish hamda kerakli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Zero, Prezidenti maslahatchisi S.Mirziyoyeva ta’kidlaganlaridek, “Xotin-qizlarimiz zo‘ravonlik va zulm obyekti bo‘lmasin Hech qanday zo‘ravonlik jazosiz qolmasligi kerak” - deya ta’kidlab o‘tganlar.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish, manfaatlarini ta’minlash, qobiliyat, iste’dod va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, bir so‘z bilan aytganda, ularni jamiyatning teng huquqli, faol va bunyodkor a’zosiga aylantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Vatanimizda ayolni ulug‘lash, uni ijtimoiy muhofaza qilish, jamiyatdagi nufuzini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlar va ular asosida olib borilayotgan islohotlarni xotin-qizlarni samarali ijtimoiy himoya qilish va faollashtirishning innovatsion modeli sifatida talqin etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. –T., 2009. – B. 199.
2. Yuridik atamalarining izohli lug‘ati: 1-jild. –T., 2007. –B. 410.
3. Arifxodjayeva I.X. Ichki ishlar idoralari psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. –T., IIV Akademiyasi, 2008. –B. 405.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T.: 2009. –B. 167–168.
5. A.S.Murodov O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi doktori “Ichki ishlar organlarining oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish” T-2019-yil 13-14 bet.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 1998-yil 11-sentyabr’ 20-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami. –T., 2018. –B. 89-90.

7. Al-kavasmi a.x. protivodeystvie kriminal’nomu nasiliyu v sfere semeyno-bitovix otnosheniy: aftoref. Dis. Kan. Yurid. Nauk. –bishkek. 2011. – s.10.

8. G. U. Tuychiyeva, R. N. Ismaylova, F. N. Alimova, X. T. Ismoilova “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatish”bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2021

9. O‘zbek tili izohli lug‘ati.

10. Atama Ibn Battutaning Tuhfat an-nuzzor fi ghara‘ib al-amsar...”asari

11. U. Sunatullayevna “Ta’lim va innovasion tadqiqotlar” jurnali (2021 yil Maxsus son) “Oilaviy zo‘ravonlik va uni keltirib chiqaruvchi sabablari”nomli maqolasi.

12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. IV. Tartibot–Shukr / Tahrir hay’ati: T.Mirzayev (rahbar) va boshq. O‘z. Res. FA Til va adabiyot in-ti. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 608 b.

13. . Salayev N.S. Penitensiar tizimning profilaktik funksiyasi samaradorligini oshirish : yur. fan. dokt. ... dis. avtoref. – T., 2017. – 60 b.

14. Alauhanov E. Kriminologiya. Jinoyatchilikning oldini olish (VII bob). Jinoyatchilikning oldini olish tushunchasi. O‘quv qo‘llanma. – Almati, 2008. – 429 b. <http://www.allpravo.ru/library/doc>.

15. Xo‘jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (Ichki ishlar organlari faoliyati misolida) : yu.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018.